



O'ZBEK-YAPON FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIDA LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV

Nuraliyev Sardor Faxriddin o'gli

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish: yapon tili yo'nalishi talabasi.

sardornuraliyev344@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada o'zbek va yapon tillaridagi frazeologik birliklarning lingvokulturologik tarjima jarayoni ilmiy tahlil qilinadi. Iboralar tarjimasi- bu tilshunoslik va madaniyatshunoslikning tutashgan nuqtasi bo'lib, bunda nafaqat semantik muvofiqlik, balki ma'naviy-axloqiy konnotatsiyalar, metaforik ifoda vositalari va mentalitet darajalari muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada frazeologik birliklarning lingvokulturologik jihatlari, semantik o'ziga xosliklari, tarjimada duch kelinadigan muammolar, hamda ularni bartaraf etish yo'llari amaliy va nazariy misollar asosida yoritiladi. Tarjimaning faqat til emas, balki madaniyatlararo vosita ekanligi isbotlanadi.*

KIRISH

Til – madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayotiy an'analari, urf-odatlar, axloqi, qadriyatlar yig'indisi va dunyoqarashi ham aks etadi. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, badiiy va ilmiy adabiyot, og'zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi¹. Til – madaniyat tashuvchisi bo'lib, u ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini ham o'zlashtiradi. Til

¹ Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey. –London, 1971. –P. 27; Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. –М., 1990. –С. 26.



inson faoliyatlarining biri sifatida madaniyatning tarkibiy qismi hisoblansa-da, tafakkur shakli va muloqot vositasi sifatida madaniyat bilan bir qatorda turadi.

Tilshunoslikning bir bo'limi hisoblangan frazeologiya har ikki tilda ham mavjud bo'lib, o'zbek va yapon tillarida juda ko'p jihatdan o'xshashdir.

Frazeologik birliklar- xalq tilining bebaho xazinasidir. Ular orqali milliy tafakkur, tarixiy xotira, urf-odat, mentalitet, emotsional holat va estetik qarashlar til vositasida ifodalanadi. Frazeologik birliklarni tarjima qilish – oddiy so'zlar almashinuvi emas, balki butun madaniyatlararo konnotatsiyalarni saqlagan holda boshqa tilga ko'chirishdir.

O'zbek va yapon tillari strukturaviy va madaniy jihatdan mutlaqo turlicha tillardir. Aynan shuning uchun ushbu maqola frazeologizmlarning tarjimasida lingvokulturologik yondashuv zarurligini isbotlashga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

1. Frazeologizmlarning mohiyati va lingvokulturologik tabiati

Frazeologik birliklar – bu tilda barqaror ishlatiladigan, ko'pincha majoziy ma'no anglatadigan va tarkibiy jihatdan o'zgaras iboralardir. Ular xalq tilidagi qadimiy hikmatlar, diniy-tasavvufiy obrazlar, xalq og'zaki ijodi, afsonaviy ramzlar asosida shakllanadi. Boshqa millatlarda bo'lganidek, o'zbek va yapon tillarida ham frazeologik iboralarning o'zni juda beqiyos.

Hozirgi kunda yapon tilidagi manbalarning o'zbek tilidagi tarjima kitoblari va manbalar kamligi sababli qator rus tilshunos olimlari jumladan, A.Iskos, Teo Shippen, M.D.Stepanova kabi olimlarining ilmiy kitoblari o'zbek tilida tarjima qilingan holda yapon tilining muhim tarmoqlari o'zbek tilshunos olimlari tomonidan ham o'rganilmoqda.² Frazeologiya bo'limida asosiy tadqiqot manbayi Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" yapon tilidagi iboralarni o'zbek tilidagi muqobilini topishda ishonchli manba hisoblanadi. 1994-yilda Muxtor Umurxo'jayev va Qambarali Nazarovlar tomonidan tuzilgan "yaponcha-ruscha –o'zbekcha frazeologik lug'at" birinchi marta chop etilgan uch tilli frazeologik lug'atlardan biridir. Vinfrid Ulrix va Rut Klappenbaxning fikriga

² Hamroyev M. A. "O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi "



ko'ra yapon frazeologiyasi sohasida hamda bu borada olib borilgan tadqiqodlarning tasdiqlashicha, frazeologiya leksikologiyaning bir qismi leksikografiya aspektida ham o'rganiladi. Nishikawa Sukenobu, Shiba Kokan ham yapon frazeologiyasi sohasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.³

Tarjima – bu bir xalqning manaviy boyliklarini boshqa bir xalqqa yetkazib berishdir. Shuning uchun ham farzeologiya bo'limida tarjima muhim ro'l o'ynaydi. A.B.Kuninning frazeologizmlarga quyidagicha ta'rif beradi: “Frazeologizmlar bular shunday so'z birikmalari ularning komponentlari to'la yoki qisman ko'chma ma'noga ya'ni frazeologik ma'noga ega bo'lgan komponentlardan iborat. Frazeologik birliklarga umuman turg'unlik muhimdir”. Ya'ni frazeologik birliklarda turg'unlik, ma'nolarning ta'siri va bo'yoqdorlik olg'a suriladi. Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh bolish, kishilarning xilma-xil xarakter holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir. Shuning uchun ham ular nutqning ifodaliligini ta'minlashda betakror vositalardir.

Frazeologik birliklar va idiomalar har bir tilde o'ziga xos bo'lib, ularni tarjima qilish jarayonida katta muammolar tug'dirishi mumkin⁴. Frazeologik birliklar odatda bir tildan ikkinchi tilga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydi, balki ular turli madaniy, lingvistik va kontekstual farqlarga qarab moslashtiriladi. Tarjimada frazeologik birliklarni noto'g'ri qo'llash natijasida mazmun yo'qolishi yoki noto'g'ri talqin qilinishi mumkin. Shu sababli, frazeologik birliklarni to'g'ri tarjima qilish badiiy asarlarning muvaffaqiyatli tarjimasi uchun muhim o'rin tutadi.⁵ Har bir frazeologizm — muayyan madaniyat mahsuli. Misol uchun: o'zbek tilida “yuziga tupurdi” qattiq haqorat qilish ifodasi yapon tilidagi 「顔に泥を塗る」 (kao ni doro o nuru – yuziga loy surtmoq) – sharmanda qilish iborasiga mos keladi.

³ Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference, Samarkand.

⁴ Baker, Mona. In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge, 2011.

⁵ 2. Маматов А. Э. «Ўзбек тилида фразеологизмларнинг шаклланиши масалалари». – Т.: ЎТА. 2001.



Ikkala ibora ham yuz orqali sharmandalikni ifodalab kelmoqda. Bu, inson sharafiga va obro'si yuz bilan bog'langanini ko'rsatadi. Bu esa universal madaniy konseptlardan biri hisoblanadi.

Frazeologizmlar jamoaviy ong mahsulidir. Ular nasldan naslga o'tib, tarixiy xotira va estetik anglashuvni saqlab qoladi. O'zbek tilida mavjud bo'lgan iboralarning muqobil yoki aynan bir xil bo'lgan variant yapon tilida ham mavjuddir hamda yapon tilidan o'zbek tilida ham xuddi shundaydir. O'zbek tilidagi "Ko'ngli yorishmoq" iborasi nafaqat quvonch, balki ichki poklanish va yengillikni bildiradi. Yapon tilidagi 「心が晴れる」 (kokoro ga hareru) iborasi ham shunga yaqin, lekin fasliy ramziylik bilan bog'liq bo'lib, "ko'ngli yorishdi", "yengil tortdi" kabi ma'nolarni ham anglatadi. Quyida ham bir nechta misollarni keltirib o'tamiz.

つばをつける (tsuba o tsukeru) og'zini suvi kelmoq

うかめがお (ukame gao) qovog'I osilgan

甘いがお (amai gao) ochiq chehrali

そらみみ (sora mimi) hayol qilmoq

みみをおどろかす (mimi o odorokasu) lol qoldirmoq, hayron qoldirmoq

めをおどろかす (me o odorokasu) lol qoldirmoq

のうがない (nou ga nai) miyasi aynigan, miyasi yo'q

みみがない mimiga nai ko'rishga ko'zi yo'q

みみをかたむける mimi o katamukeru quloq solmoq

O'zbekcha frazeologizmlar ko'proq ijtimoiy-axloq, din, muhabbat bilan bog'liq bo'lsa, yaponcha frazeologizmlar tabiat, xotirjamlik va ramzlar bilan bog'liq.

2. Tarjimada lingvokulturologik muammolar

Frazeologik birliklarni tarjima qilishda eng dolzarb muammolardan biri bu lug'aviy moslikning yo'qligidir. Masalan, "Ko'ngli g'ash bo'ldi" — yapon tilida bunday ifoda mavjud emas. Tarjimada "気が重い" (ki ga omoi – yuragi og'ir) yoki "気が沈む" (ki ga shizumu – kayfiyati tushdi) kabi iboralarni tanlashimiz mumkin.



Madaniy denotatsiya yo'qolishi muammolarning yana biri hisoblanadi. Emotsional notekislik ham tarjima jarayonida muammolarni keltirib chiqaradi.

“Yuragi yorildi” degan ibora agar so‘zma-so‘z tarjima qilinsa – “心が割れた” (kokoroga wareta) bo‘ladi, lekin bu yapon tilida boshqacha ancha “kutilmagan” ohangga ega bo‘ladi. Shuning uchun **konnotativ moslik** zarur.

3. Tarjimadagi asosiy yondashuvlar

a) Funksional ekvivalentlik

Har ikki tilning madaniy mazmunini hisobga olib, ibora boshqa ifoda bilan almashtiriladi: Masalan, “yuziga qaramadi” → 顔を合わせたくない (**kao o awasetakunai**).

b) Izohli tarjima

Tarjima bilan birga tushuntirish ham beriladi: “Nomusiga gap tegdi” → “社会的な評価や信頼を失った” (jamiyatdagi o‘rni va ishonchini yo‘qotdi)

c) Kontekstual interpretatsiya

Kontekstga qarab ibora o‘zgartiriladi: “Ko‘ngil ovladi” → 心を慰めた / 優しく接した

d) Lingvokulturologik analogiya

O‘zbek tilidagi milliy obrazga yapon madaniyatiga mos keladigan timsol tanlanadi: “O‘zini bosdi” → 冷静を保った (reisei o tamotta) – xotirjamligini saqladi

XULOSA

Frazeologik birliklar tarjima jarayonida muhim o‘rin tutadi. Frazeologik tarjima – bu til o‘zgarishi emas, *ruhiyat o‘zgarishi, mentalitet uzviyligi, madaniyatlararo uyg‘unlik*dir. Tarjimon faqat matnni emas, xalq ruhini, madaniy timsollarni, kollektiv ongini boshqa tilga ko‘chiradi.

O‘zbek va yapon tillari orasidagi madaniy tafovutlar frazeologik tarjimani murakkablashtiradi. Shu boisdan tarjimada **lingvokulturologik yondashuv** zarur: har bir ibora ortidagi obraz, ramz, emotsiya va kontekst puxta o‘rganilishi, tarjimon esa madaniyatlararo vositachi sifatida faoliyat yuritishi kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Baker, Mona. In *Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge, 2011.
2. Hamroyev M. A. "O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi "
3. Katan D. *Translating Cultures*. Routledge, 2004.
4. Kubryakova E.S. *Diskurs va kognitiv lingvistika*. Moskva, 2002.
5. Lotman Yu.M. *Madaniyat va axborot*. Moskva, 1992.
6. Mirziyoyev Sh.M. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
7. 日本語慣用句辞典 (Yapon frazeologik iboralar lug'ati), Tokyo, 2020.
8. Muallifning shaxsiy tarjimonlik amaliyoti (Yaponiya, 2018–2025).
9. Маматов А. Э. «Ўзбек тилида фразеологизмларнинг шаклланиши масалалари». – Т.: ЎТА. 2001.
10. Robins R. H. *General Linguistics. An Introductory Survey*. –London, 1971.
11. Sattorov A. *O'zbek tilidagi iboralarning yapon tilidagi tarjimasida duch keladigan muammolar*. Magistrlik dissertatsiyasi, 2022.
12. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In *Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference*, Samarkand.
13. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In *Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference*, Samarkand.